

DAVLAT TASHKILOTLARI BOSHQARUVIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi direktori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning AQSH, Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya davlatlarining tajribalari o‘rganib chiqildi, ularning faoliyatlari tahlil qilinib, O‘zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *davlat boshqaruvi, axborot texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, internet, raqamli texnologiyalar, samarali, innovatsiya, platforma.*

ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В РАЗВИТИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ

Кравченко Владимир Владимирович

Директор государственного учреждения «Центр исследований цифровой экономики» при Министерстве цифровых технологий, соискатель Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье изучен опыт развития информационных технологий в управлении государственных организаций США, Эстонии, Сингапура и Южной Кореи, проведен анализ их деятельности, а также разработаны выводы и рекомендации для развития информационных технологий в управлении государственными организациями Республики Узбекистан.

Ключевые слова: *государственное управление, информационные технологии, цифровая экономика, электронное правительство, интернет, цифровые технологии, эффективность, инновация, платформа.*

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE MANAGEMENT OF STATE ORGANIZATIONS

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

Director of the state organization “Digital Economy Research Center” under the Ministry of Digital Technologies, Independent Researcher at the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article examines the experiences of the United States, Estonia, Singapore, and South Korea in the development of information technologies in the management of state organizations. Their activities are analyzed, and conclusions and recommendations are developed for the advancement of information technologies in the management of state organizations in the Republic of Uzbekistan.

Key words: *public administration, information technologies, digital economy, e-government, internet, digital technologies, efficiency, innovation, platform.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrda davlat tashkilotlarini boshqarishda axborot texnologiyalaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar shu tariqa hayotimizga singib ketdiki, ulardan kundalik hayotimizda va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirishda hattoki, davlat boshqaruvida ham foydalanib kelmoqdamiz. Raqamli texnologiyalarning ta’siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham hayotimizda sezilmoqda, umuman olganda, davlat tashkilotlari boshqaruviga raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali global iqtisodiyotning tez o’sishiga erishishimiz mumkin. Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat samaradorlikni oshirish, balki ochiqlik, shaffoflik va fuqarolar bilan muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvi davlatning to‘g‘ri faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash vakolatiga ega bo‘lib, u davlat va mahalliy davlat hokimiyat organlarining samarali faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi qarorlar qabul qilish, hokimiyat organlari o‘z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida shakllanadigan munosabatlarni tartibga solish, zarur ma’muriy hujjatlarning qabul qilinishini ta’minlash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining to‘g‘ri yo‘qligini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Davlat boshqaruvi tizimining talab qilinadigan standartlarga muvofiqligi, davlat organlari va ayrim boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilayotgan natijalarni o‘rganish va baholash, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatini axborot bilan ta’minlash kabilardir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi mavzusi yuzasidan xorijiy olimlardan J.Chang “The Role of ICT in Public Sector Innovation” (2020) asarida to‘xtalib o‘tib, asosan Janubiy

Koreyada innovatsion axborot texnologiyalarining davlat boshqaruvidagi o‘rniga asosiy urg‘uni bergan. AQSH hukumati tomonidan “Digital Government: Building a 21st Century Platform to Better Serve the American People” (2012) hujjati tayyorlangan va ushbu hujjatda federal hukumatning raqamli transformatsiya strategiyasi yoritilgan. O‘zbek olimlaridan A. Sodiqov “Raqamli davlat boshqaruvi va uning rivojlanish istiqbollari” (2022) – O‘zbekistonda raqamli hukumat konsepsiyasi va uning joriy etilishi tahlil qilingan. B. Karimov “Axborot texnologiyalarining davlat boshqaruvidagi roli” (2021) – Axborot texnologiyalarining davlat tizimidagi samaradorligi haqida ilmiy izlanish olib borilgan. D. Xolbo‘tayeov “Elektron hukumat va fuqarolik jamiyati” (2020) – Elektron hukumatning fuqarolik jamiyatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot olib borilgan.

METODOLOGIYA

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda quyidagi metodlardan foydalanildi. Tahliliy metod – mavjud ilmiy va amaliy tadqiqotlar asosida davlat boshqaruvida axborot texnologiyalarining roli va ta’siri tahlil qilindi, solishtirma metod – dunyo mamlakatlari tajribasi O‘zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi, statistik metod – raqamli transformatsiya natijalarini baholash uchun statistik ma’lumotlar va ko‘rsatkichlar ishlatildi va amaliy tadqiqot – axborot texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish bo‘yicha tajribalar o‘rganiladi va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida ham davlat tashkilotlari boshqaruviga axborot texnologiyalarini joriy qilish va shu orqali boshqaruv samaradorligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [2] gi PF-6079-son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan davlat tashkilotlarida axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 foizdan 95 foizga yetkazish;
- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish;
- 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o‘qitishni tashkillashtirish;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish;

- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalarini biriktirish hamda ularning 12 ming nafar xodimlarini axborot texnologiyalari sohasida o'qitish.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida [3]"gi PQ-357-son qarorida ham davlat tashkilotlari boshqaruviga raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Jumladan:

- moslashuvchan bandlikni (Freelance) rivojlantirish maqsadida "Frilans" milliy raqamli platformasini ishlab chiqish choralarini ko'rish;

- statistik ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlariga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini boshqarishning zamonaviy tizimlarini qo'llagan holda "Statistika integrallashgan axborot tizimi"ni ishlab chiqish;

- xodimlar faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha axborot tizimini ishlab chiqish;

- raqamli kartografiya-geodeziya arxivi bo'yicha "Geofond"ni yaratish uchun katta hajmdagi elektron materiallarni (ma'lumotlarni) saqlaydigan server qurilmasini o'rnatish;

- Respublika aerogeodeziya markazining ma'lumotlarni qayta ishlash markazini yaratish;

- kadastr agentligining "Elektron moliya xo'jaligi" tizimini joriy qilish;

- oliy ta'lim muassasalarining ilmiy ishlari va innovatsiyalari natijalarini baholash platformasini yaratish;

- raqamli iqtisodiyot rivojlanishining ko'rsatkichlarini shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish va boshqa vazifalar yuklatilgan bo'lib, ularning barchasi o'z vaqtida amalga oshirilmoqda.

Quyida xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari boshqaruvida AKTni rivojlantirish tajribalarini ko'rib chiqamiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi" da quyidagi davlatlarning tajribalar O'zbekiston Respublikasi bilan solishtirildi (1-jadval) [4].

1-jadval


Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi” natijalari¹

T/r	Davlatlar	2022-yil	Farqi	2024-yil	Farqi	Ikki yildagi o'zgarish
1	Daniya	1	-	1	-	-
2.	Janubiy Koreya	3	▼1	4	▼1	▼2
3.	Qozog'iston	28	▲1	24	▲4	▲5
4.	Xitoy	43	▲2	35	▲8	▲10
5.	Rossiya	42	▼6	43	▼1	▼7
6.	Armaniston	64	▲4	48	▲16	▲20
7.	O'zbekiston	69	▲18	63	▲6	▲24
8.	Ozarbayjon	83	▼13	74	▲9	▼4
9.	Belarus	58	▼18	77	▼19	▼37
10.	Qirg'iziston	81	▲2	78	▲3	▲5
11.	Tojikiston	129	▲4	123	▲6	▲10

Ushbu jadvladan ko'rinib turibdiki, Daniya Respublikasi so'ngi ikki yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumatni rivojlantirish reytingi” da yetakchi davlat bo'lib kelmoqda. Janubiy Koreya davlati esa, ushbu reytingda 2022-yilda 3-o'rinni egallagan bo'lsa, 2024-yildagi natijalarga ko'ra, 4-o'rinni egallab, reytingda 1 pog'ona pastga tushgan. Bizga qo'shni mamlakatlardan, Qozog'istonni oladigan bo'lsak, reytingda 2022-yil 28-o'rinni egallagan va 2024-yilda 4 pog'ona yuqorilab, 24-o'rindan joy olgan. O'zbekiston Respublikasi 2022-yilda ushbu reytingda 69-o'rindan joy egallagan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 63-o'ringa ko'tarildi, bu esa o'z navbatida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tashkilotlarida axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotganligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni [5] bilan tasdiqlangan maqsadlarning 57-chisida ham 2030-yilga borib, BMTning Elektron hukumat reytingida top-30 talikka kirishga erishish maqsad qilib olingan.

¹ Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Elektron hukumatning rivojlanish indeksi quyidagi komponentlardan tashkil topadi [6] (1-rasm):



1-rasm. Elektron hukumat rivojlanish indeksining komponentlari²

Ushbu komponentlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 2024-yilda quyidagi natijalarni qo'lga kiritgan:

a) telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi bo'yicha 0.87 ko'rsatkichni (+0.22) qayd etdi. Bunda, 3 ta asosiy indikatorlarning (mobil aloqa abonentlari, Internet xizmatlaridan foydalanuvchilar, keng polosali mobil Internet foydalanuvchilari) o'sishi hisobiga ushbu indeks bo'yicha rivojlanganlik darajasi "juda yuqori" bo'lgan mamlakatlar ro'yxatiga kiritildi.

Shuningdek, indeksni baholash uchun yangi – keng polosali qulaylik baholash ko'rsatkichi (keng polosali mobil ma'lumotlar va ovozli xabarlar savatchasining narxi (1.02) hamda qat'iy belgilangan keng polosali internet savati narxi (1.71) kiritildi;

b) inson kapitali indeksi bo'yicha mamlakatimiz 0.75 ko'rsatkichni (-0.02) qayd etdi. Bunda 2 ta asosiy indikatorlar (ta'limga yalpi qamrov darajasi va o'rtacha ta'lim davomiyligi) bo'yicha o'sish qayd etildi.

Shuningdek, mazkur indeksni baholashda yangi ko'rsatkich – elektron hukumat savodxonligi (0.72) kiritildi;


d) onlayn xizmatlar indeksi bo'yicha mamlakatimiz 0.76 ko'rsatkichni (+0.02) qayd etdi. Bunda, xizmat taqdim etish va elektron ishtirok etish ko'rsatkichlari bo'yicha o'sishga erishildi.

Davlat tashkilotlarida axborot texnologiyalari rivojlanishini internet texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Quyida internet dunyo bo'ylab internetdan foydalanish darajasini ko'rib chiqamiz. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union)ning 2024-yil hisobotiga ko'ra, odamlar orasida Internetdan foydalanish yildan-yilga o'sib bormoqda, lekin kam daromadli hududlarda hanuzgacha Internetdan foydalanish qiyin bo'layotganligi ta'kidlab

² E-government survey 2024 asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

o‘tilgan [7]. Ushbu hisobotga ko‘ra, dunyo aholisining 70 foizi, ya‘ni qariyb 5.5 mlrd nafari hozirgi kunda internetdan foydalanadi.

Yevropa, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va Amerikada aholining 87-92 foizi atrofida, Arab davlatlari va Osiyo-Tinch okeani mamlakatlarida, aholining taxminan uchdan ikki qismi (mos ravishda 70 va 66 foiz), internetdan foydalanadi, lekin Afrikada o‘rtacha ko‘rsatkich atigi 38 foizni tashkil qiladi xolos (2-rasm) [8].




2-rasm. Insonlarning internetdan foydalanish darajasi (foizda) davlatlar kesimida (2019 va 2024 yillar farqi)³

Ushbu ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, dunyo bo'ylab insonlarning internetdan foydalanish darajasi 2019-yilga qaraganda, 2024-yilda sezilarli darajada oshgan. Davlatlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, internetdan foydalanish darajasi Yevropa davlatlarida yuqori bo'lgan, ya'ni 2019-yilda 82 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda 91 foizga yetgan. Insonlarning internetdan foydalanish darajasi bo'yicha eng past daraja sifatida Afrika davlatlarini olish mumkin, ya'ni 2019-yilda 25 foiz bo'lgan, oradan 5 yil o'tib, 38 foizga ko'tarilgan, bularning hammasi davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlat tashkilotlari boshqaruviga axborot texnologiyalarini rivojlantirishning Estoniya tajribasini ko'rib chiqamiz. Estoniya dunyodagi eng ilg'or raqamli hukumat rivojlangan davlatlardan biridir. Estoniya dunyodagi yetakchi IT infratuzilmasi va elektron xizmatlariga ega davlat hisoblanadi.

Hozirgi kunda Estoniyada axborot texnologiyalarining rivojlanishi quyidagicha (3-rasm) [8]:

³ Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union)ning 2024-yil hisoboti asosida muallif ishlanmasi



3-rasm. Estoniya davlat boshqaruvida axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi⁴

Rasmiy Estoniya davlatining elektron xizmatlari portali eesti.ee deb nomlanib, Estoniyada taqdim etilayotgan elektron xizmatlarning 99% uchun himoyalangan shlyuz hisoblanadi. Portal foydalanuvchilarga qulay foydalanish imkoniyatini beradi va hukumatga yangi xizmatlarni integratsiya qilish va ilgari surish uchun yaxshi platformani taqdim etadi. 2014 yilda eesti.ee portalida 815 ta elektron xizmatlardan foydalanishni taklif qildi va unga dunyoning 200 dan ortiq mamlakatidan estoniyaliklar tashrif buyurishdi. Umuman olganda, elektron xizmatlardan 7 millionga yaqin insonlar foydalandi, bu esa, Estoniya aholisidan besh baravar ko'p deganidir.

Davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning Estoniya tajribasini qo'llash boshqaruv samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi.

Quyida Davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning Janubiy Koreya tajribasini ko'rib chiqamiz.

Koreya Respublikasi so'nggi besh o'n yillikda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida katta yutuqlarga erishdi. 1960-yilda Janubiy Koreyada telefon aloqasi 100 aholiga 0,36 ni tashkil etgan, bu o'sha paytdagi o'rtacha dunyodagi telefonlarning o'ndan bir qismiga teng edi. 1981-yilga kelib, Janubiy Koreya dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga erishdi.

⁴ e-Estonia hisoboti asosida muallif ishlanmasi (<https://ega.ee/wp-content/uploads/2016/06/e-Estonia-e-Governance-in-Practice.pdf>)

Janubiy Koreyada axborotlashtirish 1970-yillarning oxirida, mintaqalarda asosiy ma'muriy biznes jarayonlari kompyuterlashtirilgan paytda boshlangan. Shu jumladan rezidentlarni ro'yxatga olish, ko'chmas mulk va transport vositalari. 1990-yillarda axborotlashtirishning asosiy yo'nalishi pasport patenti va xaridlarni boshqarish kabi birlikka asoslangan yoki funksiyaga asoslangan jarayonlarga o'tdi. Janubiy Koreyaning elektron hukumatini joriy etish tarixi (2-jadval)ni keltiramiz.

2-jadval

Koreyaning elektron hukumatini joriy etish tarixi⁵

Bosqich	Amalga oshirishning asosiy mazmuni
AKTning dastlabki bosqichi (1960-1970 yillar)	Iqtisodiy rejalashtirish kengashining statistika biznesiga kompyuterlarni kiritish (1967);
Elektron hukumat inkubatsiya davri (1980-1990-yillar)	AKT ma'muriyatining 5 yillik asosiy rejasini tuzish (1978); AKT biznesini boshqarish; Hisoblash tarmog'i biznesining milliy davri (1987);
Elektron hukumat bazasini tayyorlash davri (1990-yillarning o'rtalari ~ 2000-yillar)	Ultra yuqori tezlikdagi axborot aloqasi bazasini yaratish; AKTni joriy etish to'g'risidagi qonun hujjatlarini qabul qilish.
Elektron hukumatni ishga tushirish davri (2001 ~ 2002)	Elektron hukumatni amalga oshirish 11 ta vazifa; Elektron hukumat to'g'risidagi qonunlarni qabul qilish (2001).
Elektron hukumatning rivojlanish davri (2003 ~ 2007)	"Elektron hukumat" – 31 ta vazifani amalga oshirish; Davlat idoralari va idoralarni bog'lash va integratsiyalash uchun asos tayyorlandi.
Elektron hukumatning amal qilish muddati (2008 ~ 2012)	Milliy AKT bosh rejasini yaratish (2008); Biznesni ochish, almashish va hamkorlikka asoslangan "Elektron hukumat"ning 12 ta vazifasini amalga oshirish.
Elektron hukumat davri bilan GOV3.0 (2013 ~ Hozir)	Milliy AKT bosh rejasini yaratish (2008); Ma'lumotlarni oshkor qilish to'g'risidagi qonun (2013).

Bundan tashqari, bu davlat xizmatiga ariza topshirish uchun hujjatlarni topshirishning sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi va fuqarolik murojaatlari bo'yicha portal xizmatlarini ko'rsatish orqali fuqarolarning siyosatni ishlab chiqishda qulayligi va ishtiroki ortdi yoki ushbu idoralarga shaxsan bormasdan turib, davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlik qilish imkonini berdi.

Quyida sanab o'tilgan sohalar ilg'or elektron hukumat va turli vazirliklar uchun asosiy biznes muhitini yaratgan. Shu bois, bu tashabbuslar to'liq amalga oshirilsa, tizimdan nafaqat xalq va kompaniyalar foyda ko'rishi, balki Janubiy Koreya hukumatining shaffofligi va hisobdorligi ham sezilarli darajada oshishi kutilgan edi. Janubiy Koreyada elektron hukumat tashabbuslarini ko'rib chiqamiz [9] (3-jadval).

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Janubiy Koreyada elektron hukumat tashabbuslari⁶

Maqsad	Asosiy xususiyatlar
Fuqarolar va xususiy biznes uchun davlat xizmatlarini yangilab borish	Fuqarolar uchun hukumat (G4C) tizimi; Ijtimoiy sug'urta haqida ma'lumot almashish tizimi; Uyda soliq xizmati tizimi; Davlat elektron xaridlari tizimi;
Boshqaruv samaradorligini oshirish	Milliy moliya axborot tizimi; Milliy ta'lim axborot tizimi; Mahalliy hokimiyat organlarining axborot tarmoqlari tizimi; Kadrlar siyosatini qo'llab-quvvatlash tizimi.
Elektron hukumat infratuzilmasini yaratish	Elektron tasdiqlash va elektron hujjat almashinuvi; Elektron imzo va elektron muhr tizimi; Hukumat miqyosida birlashtirilgan kompyuter tarmog'i.

Elektron hukumat fuqarolarga davlat axboroti va xizmatlaridan foydalanishni osonlashtirishi va hukumat samaradorligi, samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligi, ma'muriy qulaylik, hukumatning mavjudligi va ishtirok etish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Davlat tashkilotlari boshqaruviga axborot texnologiyalarini rivojlantirishning Singapur tajribasiga qaraydigan bo'lsak, bu davlat ushbu sohada ancha yirik yutuqlarga erishgan. Singapurning maqsadi raqamli texnologiyalarni shunchaki rivojlantirish bilan cheklanmaydi, o'z tajribasini eksport qilishni ham rejalashtirgan (ma'lumot uchun: mamlakat YaIMning uchdan ikki qismi tashqi bozori hisobiga shakllantiriladi). So'nggi 4 yilda mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida hukumat 2,4 mlrd. Singapur dollari (\$1,68 mlrd.) ajratdi. Kichik va o'rta biznesning raqamli imkoniyatlarini oshirishga esa — \$56,43 mln⁷.

Smart Nation Initiative dasturi asosida Singapur uchta asosiy yo'nalish, ya'ni raqamli hukumat, raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatni rivojlantirishga e'tibor qaratdi.

Bundan tashqari, Singapur hukumati texnologiya shahar muhitini o'zgartirishi mumkin bo'lgan beshta asosiy sohani aniqladi va ushbu sohalarni rivojlantirishga e'tibor qaratdi: Ular quyidagilar⁸:

Sog'liqni saqlash sohasi: Odamlar taqiladigan qurilmalar va smartfonlar orqali sog'lig'ini nazorat qilib yuradi.

Ta'lim sohasi: Raqamli texnologiya o'z-o'zini boshqarish va hamkorlikda o'rganishni yaxshilaydi, avtomatlashtirish esa ma'muriy vazifalarni soddalashtiradi.

⁶ Oussama Belakhdar, Romanian-American university 2021, E-governance in South Korea maqolasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

⁷ <https://xabar.uz/uz/tahlil/ichishga-suvi-ham-yoq-davlat-qanday-boyidi> maqolasidan olindi

⁸ Weiling Ke. Clarkson university. Successful E-government in Singapore 2015 maqolasi asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Transport sohasi: Ma'lumotlar tahlili, aqlli tizimlar va avtonom transport vositalari transport samaradorligi va barqarorligini oshiradi, shuningdek, tirbandlikni yaxshilaydi.

Shahar yechimlari: Aqlli tizimlar va sensorlar shaharlarda xavfsizlik va barqarorlikni ham oshiradi.

Moliya sohasi: Singapur mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, savdoni moliyalashtirish samaradorligini oshirish va moliya sektorida muvofiqlik xarajatlarini kamaytirish uchun fintech yechimlaridan foydalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu tadqiqot ishimizda davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribasini ko'rib chiqdik. O'zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlari boshqaruvida axborot texnologiyalarini rivojlantirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish;

- davlat xizmatlari reestriga kiritilgan barcha xizmatlar uchun onlayn ariza berish imkoniyatini yaratish;

- yagona interaktiv davlat xizmatlari portali negizida onlayn tarzda ko'rsatiluvchi barcha xizmatlar muddatlarini monitoring qilish tizimini yaratish;

- yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi talqinini to'laqonli ishga tushirish va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan "chat-bot" funksiyasini joriy etish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son farmoni.

4. Inshakova E G 2015 "E-government" in public administration: administrative and legal problems of organization and functioning (Voronezh: Voronezh State University).

5. <https://xabar.uz/>

6. e-Estonia hisoboti. (<https://ega.ee/wp-content/uploads/2016/06/e-Estonia-e-Governance-in-Practice.pdf>).

7. Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (International Telecommunication Union)ning 2024-yil hisoboti.

8. Weiling Ke. Clarkson university. Successful E-government in Singapore 2015.

9. Oussama Belahdar, Romanian-American university, E-governance in South Korea 2021.